

SHAHODAT ISAXONOVA ROMANLARIDA MILLIY XARAKTER KONSEPSIYASI VA QAHRAMONLAR TIPOLOGIYASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20344494>

Marufjonova Muxlisa Tulanboy qizi; Phd Hamidov Mirolim Mansurovich
Farg'ona Davlat Universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqola Shahodat Isaxonovaning “Turon malikasi” va “Sulton Jaloliddin Manguberdi yoxud Chingizxon tuzog‘iga tushgan malika” tarixiy romanlarida milliy xarakter konsepsiyasining badiiy ifodalanishini va qahramonlar tipologiyasini o‘rganishni maqsad qiladi.

Kalit so‘zlar

Shahodat Isaxonova, milliy xarakter, qahramonlar tipologiyasi, tarixiy roman, badiiy psixologizm, Xorazmshohlar, Temuriylar.

Аннотация

Данная статья направлена на исследование художественного выражения концепции национального характера и типологии героев в исторических романах Шаходат Исахоновой «Царица Турана» и «Султан Джалолитдин Мангуберды, или Принцесса, попавшая в ловушку Чингисхана».

Ключевые слова

Шаходат Исахонова, национальный характер, типология героев, исторический роман, художественный психологизм, Хорезмшахи, Тимуриды.

Abstract

This article aims to study the artistic expression of the concept of national character and the typology of characters in Shahodat Isakhonova’s historical novels “The Queen of Turan” and “Sultan Jalaliddin Manguberdi, or the Princess Trapped in Genghis Khan’s Snare.”

Keywords

Shahodat Isakhonova, national character, character typology, historical novel, artistic psychologism, Khwarazmshahs, Timurids.

Kirish

XXI asr o‘zbek adabiyotida tarixiy roman janrining yangi bosqichga ko‘tarilishi nafaqat mavzu doirasining kengayishi, balki badiiy tafakkurning tubdan yangilanishi bilan ham belgilanadi. Mustaqillik sharoitida mafkuraviy chegaralar bartaraf etilgach, o‘zbek yozuvchilari o‘tmish shaxslarini xolis va haqqoniy tasvirlash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Aynan mana shu tarixiy-ijtimoiy zamin Shahodat Isaxonova kabi ayol adibalarning tarixiy mavzudagi romanlari uchun unumdor badiiy maydonga aylandi.

Milliy xarakter muammosi adabiyotshunoslikda ko'p qirrali va o'ziga xos tushuncha hisoblanadi. U muayyan xalqning tarixiy sharoitda shakllangan, avloddan avlodga o'tib kelgan ruhiy-axloqiy xususiyatlar majmuini o'zida mujassamlashtiradi.⁶⁶ Tarixiy romanda bu xususiyatlar konkret shaxs qahramon obrazi orqali badiiy ifodasini topadi. Shu jihatdan qaraganda, qahramonlar tipologiyasini o'rganish milliy xarakter konsepsiyasini ochib berishning asosiy metodologik yo'li sifatida namoyon bo'ladi.

Shahodat Isaxonovaning "Turon malikasi"⁶⁷ va "Sulton Jaloliddin Manguberdi yoxud Chingizxon tuzog'iga tushgan malika"⁶⁸ romanlari Xorazmshohlar va Temuriylar saltanatlari o'zbek xalqi tarixining eng shonli va ayni paytda fojiviy davrlarini badiiy tasvirga oladi. Adibaning ushbu asarlaridagi qahramonlar tizimi o'ziga xos tipologik rang-baranglik bilan ajralib turadi: tarixan real shaxslar, ularning insoniy qiyofalari, milliy qadriyatlarga munosabatlari va ruhiy olami orqali o'zbek milliy xarakteri turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Tadqiqotimiz ko'lamidan anglashiladiki, Isaxonova romanlaridagi milliy xarakter konsepsiyasi hali maxsus ilmiy tahlil obekti sifatida to'laqonli o'rganilmagan. N. Matmusaeva⁶⁹ ayol shaxsi va uning badiiy talqini, S. Usmonova⁷⁰ esa ingliz va o'zbek tarixiy romanlaridagi malikalar obrazini qiyosiy o'rgangan bo'lsa ham, qahramonlar tipologiyasi va milliy xarakter konsepsiyasi yaxlit tizim sifatida ilmiy tadqiq etilmagan. Ushbu bo'shliq mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

Maqola maqsadi Isaxonova romanlarida milliy xarakter konsepsiyasini shakllantirishning badiiy mexanizmlari va qahramonlar tipologiyasini aniqlash hamda ilmiy asoslashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi va nazariy asos

Milliy xarakter muammosi jahon va o'zbek adabiyotshunosligida keng tadqiq etilgan bo'lsa-da, tarixiy romandagi qahramonlar tipologiyasi bilan bog'liq aspekti nisbatan kam o'rganilgan soha bo'lib qolmoqda. Rus adabiyotshunos olimi V. M. Jirmunskiy⁷¹ badiiy asarda milliy xarakter nafaqat tashqi belgilar, balki qahramonning ichki dunyosi, qarashlari va muammolarga munosabati orqali yaratilishini ta'kidlaydi. G. N. Pospelov⁷² esa tipologik tahlilni adabiy qahramonlarni turkumlashning ilmiy usuli sifatida asoslaydi va har bir tip muayyan ijtimoiy-tarixiy sharoitning mahsuli ekanligini ko'rsatadi.

⁶⁶ Qo'shjonov, M. (1977). Mohiyat va badiiyat. Toshkent: G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

⁶⁷ Isaxonova, Sh. (2022). Turon malikasi: tarixiy roman. Toshkent: Ma'rifat bitiklari.

⁶⁸ Isaxonova, Sh. (2018). Sulton Jaloliddin Manguberdi. Toshkent: Sano-standart.

⁶⁹ Matmusaeva, N. M. (2024). Hozirgi o'zbek tarixiy romanlarida ayol shaxsi va uning badiiy talqini: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Namangan.

⁷⁰ Usmonova, S. (2025). O'zbek va ingliz tarixiy romanlarida malikalar obrazining qiyosiy-tipologik talqini: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Farg'ona.

⁷¹ Jirmunskiy, V. M. (1977). Teoriya literatury. Poetika. Stilistika. Leningrad: Nauka.

⁷² Pospelov, G. N. (1970). Teoriya literatury. Poetika. Moskva: Nauka.

O'zbek adabiyotshunosligi maktabida M. Qo'shjonov⁷³, U. Normatov⁷⁴, B. Nazarov⁷⁵ va D. Quronov⁷⁶ kabi olimlarning tadqiqotlari xarakter yaratish, milliy o'zlik anglash va tarixiy shaxs obrazi masalalarini ko'p qirrali yoritadi. Xususan, Quronov romaniy xarakter ijtimoiy muhit, tarixiy moment va individual ruhiyatning sintezi ekanligini nazariy jihatdan asoslaydi.

Tarixiy roman janri doirasida esa U. Jo'raqulov⁷⁷ "ideal obraz" tushunchasini kiritib, uni uch asosiy mezonlar: tarixiy haqiqat, ibratlilik va badiiy hayotiylik bilan belgilaydi. Bu mezonlar Isaxonova romanlarini tahlil qilishda nazariy tayanch bo'lib xizmat qiladi. G. N. Ashurova⁷⁸ mustaqillik davri o'zbek adabiyotida tarixiy shaxs obrazini yaratishning metodologik asoslarini belgilaydi va bu borada "tarixiy sharoitni bilish", "davr tilini o'zlashtirish" va "badiiy to'qimadan o'rinli foydalanish" kabi mezonlarni ilgari suradi. Isaxonova ijodi haqida N. Matmusaeva, S. Usmonova, A. Meliboev va boshqa tadqiqotchilarning muayyan fikrlari mavjud bo'lsa-da, qahramonlar tipologiyasi va milliy xarakter konsepsiyasi alohida ilmiy muammo sifatida ko'rib chiqilmagan. Ushbu tadqiqot esa aynan shu bo'shliqni to'ldirish maqsadini ko'zlaydi.

Metodologiya

Tadqiqotda quyidagi metodlar kompleks tarzda qo'llanildi:

Qiyosiy-tipologik metod qahramonlarning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini belgilash, ularni tipologik guruhlashtirish hamda xarakter turlarini taqqoslash uchun asosiy usul sifatida xizmat qildi.

Germenevtik tahlil asardagi badiiy matn, ramzlar, tushlar va metaforalar orqali yashiringan milliy-axloqiy ma'nolarni ochish maqsadida qo'llanildi.

Psixologik tahlil ichki monologlar, dialoglar, portret va peyzaj tasvirlari orqali qahramonlar ruhiyatining milliy xarakter bilan bog'liqligini aniqlash uchun ishlatildi.

Tarixiy-hujjatli tahlil adibaning tarixiy manbalar, Shihobiddin an-Nasaviyning "Siyrat as-Sulton Jaloliddin Manguberdi" (1999) va Ibn Arabshohning "Amir Temur tarixi" (1992) asarlaridagi factual ma'lumotlardan foydalanish xususiyatlarini aniqlash uchun qo'llanildi.

Tadqiqot manbalari: Isaxonovaning "Sulton Jaloliddin Manguberdi" (2018) va "Turon malikasi" (2022) romanlari asosiy birlamchi manba sifatida olingan; ularni tahlil qilishda o'zbek va xorijiy adabiyotshunoslari asarlari, shuningdek, tarixiy hujjatlar va kronikalar keng qo'llanilgan.

Natijalar

⁷³ Qo'shjonov, M. (1977). Mohiyat va badiiyat. Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

⁷⁴ Normatov U. Nasriimiz an'analari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978.

⁷⁵ Nazarov B. Hayotiylik – bezavol mezon. Toshkent: Sharq, 2004.

⁷⁶ Quronov, S. (2024). Romanda inson. Andijon: Ilmiy bitiklar.

⁷⁷ Jo'raqulov, U. (2024). Tarixiy obraz: genesis va tipologiya. Theory of Literature, (1), 8–14.

⁷⁸ Ashurova, G. N. (2023). Mustaqillik davri o'zbek adabiyotida Alisher Navoiy obrazi: Monografiya. Toshkent: Qamar media.

Milliy xarakter konsepsiyasining asosiy tarkibiy unsurlari. Isaxonova romanlarini chuqur tahlil etish natijasida adibaning milliy xarakter konsepsiyasida bir necha yetakchi komponent aniqlandi. Ushbu komponentlar quyidagi jadvalda umumlashtirilgan:

Jadval 1. Isaxonova romanlarida milliy xarakter konsepsiyasining asosiy unsurlari

Milliy xarakter unsuri	Romandagi ifodasi	Vakillik obrazlar	qiluvchi	Badiiy vosita
Vatanparvarlik	Vatan yo'lida jon fido etish tayorligi	Jaloliddin Manguberdi, Malika Xonsulton		Ichki monolog, maktub detali
Adolat va mas'uliyat	Hukmdorlik burchini vijdonan ado etish	Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi		Psixologik portret, konflikt
Onalik muhabbati	Farzand uchun jon kuydirish	Oychechak begim, Turkon (murakkab)		Ichki dialog, peyzaj
Sabr va matonat	Qiyin sharoitda ruhiy bardoshlik	Bibixonim, Oychechak begim		Tush motivi, retrospeksiya
Milliy kibr (salbiy)	Xiyonat va tanazzulga sabab	Muhammad Xorazmshoh, Shodmulk		Psixologik portret, kontrast
Ilm-maorifatga intilish	Ilm ahliga hurmat va homiylik	Turkon xotun (ijobiy qirra), Bibixonim		Dialog, nutqiy individualizatsiya
Birdamlik noahillik	Mag'lubiyat va g'alabaning manbai	Barcha erkak shahzodalar		Xarakterlararo konflikt

Кахрамонлар типологияси: уч асосий модел. Тадқиқот натижасида Исахонова романларида қахрамонларни уч асосий типологик гуруҳга бўлиш мумкинлиги аниқланди.

Идеал характер типи. Жўракулов (2024) ишлаб чиққан мезонларга кўра, идеал образ тарихий ҳақиқатга асосланган, ибратли турмуш тарзини яшаган ва миллий қадриятларни тўлақонли мужассамлаштирувчи шахсдир. Ушбу мезонларга кўра, тадқиқот обектимизда Султон Жалолиддин Мангуберди ва Бибиixonим образлари идеал характер типини вакиллайди.

Жалолиддин Мангуберди образи ватанпарварлик ва ироданинг уйғунлиги орқали қурилган. Адиба бу қахрамонни ҳокимият илинжидан бутунлай йироқ шахс сифатида тасвирлайди. Султон, монархия рамзи бўлмиш валиаҳдлик камарини ўзи ихтиёри билан ечиб кўя олишга тайёр инсон сифатида гавдалантирилади: “Султонлик керак бўлса майли олишсин, мен розиман” бу сўзлар унинг характеридаги ҳоким фазилат ватанпарварлик эканини яққол кўрсатади. Муаллиф ушбу идеал қахрамонни романтилаштирмасдан, унинг ҳиссий изтиробларини ўғли Менгтусшоҳнинг душман найзасида кўришдаги қайғусини теран психологик деталлар билан ёритади ва шу орқали идеал типни ҳаётий инсон сифатида кўрсатади.

Бибиixonим эса ақл ва нафосат тимсолидир. Унинг нутқи ҳадиси шарифлар, Амир Темур ҳикматларига тўла бўлиб, бу адибанинг миллий характер консеписиясида илм ва маънавиятни марказий қадрият сифатида белгилаганини кўрсатади. У Халил Султонга айтган насиҳатларида “Илонсиз

дарё бўлмас, қайғусиз бахт бўлмас” қабилдаги халқ донишмандлигига таянади бу эса унинг миллий тафаккур усулининг ўзагидан дарак беради.

Реал (зиддиятли) характер типиди. Бу типга мансуб қаҳрамонлар ижобий ва салбий хусусиятларни бирлаштиради. Уларнинг характери бир текисда эмас, балки тарихий шароит, шахсий изтироб ва ахлоқий танлов билан ўзгариб боради. Туркон хотун ва Амир Темур реал характер типининг энг ёрқин намуналаридир.

Туркон хотун образиди бир вақтнинг ўзиди икки қарама-қарши қиррада намоён бўлади: малика ва она сифатида. У давлат арбоблик салоҳиятига эга, илм-маорифатга ҳомийлик қилувчи, ўғлини тўғри йўлга ундашга уринувчи онасифат шахс. Бироқ унинг энг фожиавий хатоси — халқни ташлаб кетиш ва ўз манфаатини юқори қўйиш. Айнан мана шу икки қирра ўртасиди зиддият уни реал типининг ёрқин вакилига айлантиради. Адиба Туркон хотуннинг Яратган билан ботиний диалогиди унинг хатоларини ўзи тан олишини тасвирлайди: “Сен элни ташладинг, Туркон. Бу гуноҳ барча гуноҳлардан оғирроқдир” бу сатр миллий характер концепсиясиди марказий ахлоқий ҳукм сифатида намоён бўлади.

Амир Темур эса адолат ва қаттиққўллик ўртасиди мувозанатни сақловчи, лекин бу мувозанат бузилганда ички азоб чекувчи шахс сифатида тасвирланади. Жоме масжиди қурилиши мутасаддилари билан тўқнашувда унинг характериди адолат тамойили: “Ишонч ва хиёнат ўртасиди зир югураётган ғазаб ва алам Амир Темурни ўз исканжасиди азобламоқда эди” деган бадий психологизм билан очилади.

Foijaviy xarakter tipi. Bu tipga mansub qahramonlar o'zlarining ichki kamchiliklari kibr, beparvolik, nafsparastlik tufayli halokat yoqasiga kelib qoladilar. Muhammad Xorazmshoh va Mironshoh Mirzo bu tipning asosiy vakillaridir.

Muhammad Xorazmshoh obrazida milliy xarakter konsepsiyasining “salbiy qutbi” - mas'uliyatsizlik, kaltabinlik va makr badiiy ifodasini topadi. Adiba uning xarakter nuqsonini bir ramziy detal orqali yorqin ochib beradi: Merkit qabilasining qirib tashlangani manzarasidan quvonish. Bu holat sultonning milliy rahbar sifatida muvaffaqiyatsizligini belgisi bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, onasiga nisbatan befarqligi “Kampir hali baquvvat” - degan beparvolarcha o'ylari milliy axloqiy mezonlar nuqtayi nazaridan foijaviy xarakter tipini to'liq aks ettiradi.

Mironshoh Mirzo esa qobiliyat va imkoniyatga ega bo'la turib, o'zini maishat va qiziqarli hayotga berib yuborgan shahzoda timsolidir. Uning fojiasi shunda: u Amir Temurning yaxshi o'g'il bo'lishni istab, buni amalga oshira olmagan, bu esa uning ichki konfliktini qahramonlik bilan emas, azob bilan yakunlanishiga olib keladi.

Milliy xarakter konsepsiyasining gender aspekti. Isaxonova romanlarida milliy xarakter konsepsiyasining o'ziga xos jihati shundaki, adiba ayol obrazlari

orqali milliy xarakter tarkibidagi eng barqaror va chuqur qatlamlarni ifodalaydi. Bu holat jadvalda ko'rsatilgan:

Jadval 2. Ayol va erkak obrazlarida milliy xarakter ifodasining o'ziga xos xususiyatlari

Xarakter xususiyati	Erkak obrazlari	Ayol obrazlari	Farq
Vatanparvarlik	Jang orqali	Maktub, nasihat, mas'uliyat orqali	Shakl farqli, mohiyat bir
Sabr	Siyosiy sabr	Onalik sabri, iztirob	Ayolda chuqurroq
Adovat	Siyosiy-harbiy	Saroy-shaxsiy	Ko'lami kichikroq, zararli
Ilm	Siyosiy amaliyot	Tarbiya, nasihat	Ijtimoiy funksiyasi farqli
Mas'uliyat	Davlat	Oila va avlod	Miqyosi farqli

Oychechak begim obrazida milliy onalik xakteri o'zining sof ko'rinishida namoyon bo'ladi. U saroydagi mavqeiga emas, farzandining taqdiri va sha'niga qayg'uradi. Bu holat adibaning milliy xarakter konsepsiyasida onalik mexri hatto siyosiy hokimiyatdan ham ustun turuvchi qiymat sifatida talqin qilinganini ko'rsatadi. Bu nuqtai nazar an'anaviy o'zbek qadriyat tizimi bilan to'liq uyg'un tushadi.

Aksincha, Shodmulk begim obrazi milliy xarakter konsepsiyasining "o'zini anglash" aspektini murakkab tarzda ko'rsatadi. U qashshoq hunarmand oilasidan saroy'ga ko'tarilgan va bu o'tish jarayonida milliy an'anaviy qadriyatlar bilan saroy madaniyati o'rtasida qolgan qahramondir. Uning "O'z uyi" haqidagi fikrlari - "ming shohonadan ham ao'loroq" - milliy xarakter nuqtayi nazaridan muhim: milliy ildizga bog'liqlik milliy xarakter tarkibida barqaror ko'rinishda saqlanib turadi.

Milliy xarakter va tarixiy haqiqat: Badiiy usullar. Isaxonova milliy xarakter konsepsiyasini badiiy shakllantirish uchun bir necha o'ziga xos usullardan foydalanadi:

Arxaik leksika va nutqiy individualizatsiya: Qahramonlar nutqida "erdi", "ermish", "bo'lgay", "aylang", "ul" kabi arxaik shakllari qo'llanishi milliy tarixiy xarakter ko'rinishini yaratishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bu orqali adiba o'sha davr kishisining tafakkur uslubini, ya'ni milliy ruhiyatning tarixiy qatlamlarini aks ettiradi.

Xalq maqollari va hikmatli so'zlar: Jaloliddin Manguberdining nutqidagi "bo'linganni bo'ri yer, ayrilganni ayiq", "oltovlon ola bo'lsa, og'izdaging oldirar" kabi maqollar milliy tafakkur usulini boricha ko'rsatadi. Bu maqollar qahramonlarning milliy xarakter tarkibida yashayotgan axloqiy-falsafiy mezonlarini ifodalaydi.

Tush va ramziy detallar: Tush motivi va badiiy detallar qahramonlar taqdiriga milliy-estetik ma'no yuklaydi. Amir Temurning musichalar haqidagi bolaligi xotiralari bu shunchaki nostalgiya emas, balki milliy xotirada saqlanib kelgan tabiatga mehribonlik qadriyatini aks ettiradi.

Ichki dialog usuli: Turkon xotunning Yaratgan bilan suhbatu bu adibaning eng original badiiy kashfiyotidir. Ushbu dialog orqali milliy axloqiy hisob-kitob “sen nima qilding?” savoli ijtimoiy-tarixiy fon bilan emas, balki shaxsning o‘z vijdoni orqali amalga oshiriladi. Bu usul o‘zbek milliy xarakteri konsepsiyasida mas’uliyatni faqat tashqi kuchlar emas, balki shaxsiy vijdon oldida ham his qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Muhokama

Avvalgi tadqiqotlar bilan qiyos. N. Matmusaevaning (2024) tadqiqoti Isaxonova ijodida ayol shaxsining badiiy talqiniga e‘tibor qaratgan bo‘lsa, ushbu maqolada milliy xarakter konsepsiyasining universal (erkak va ayol uchun umumiy) jihatlari alohida tahlil qilindi. Shu orqali oldingi tadqiqotlarda qisman yoritilgan ayol obrazlari tipologiyasi kengaytirildi va erkak qahramonlarning milliy xarakter konsepsiyasidagi o‘rni yangi rakursda ko‘rsatildi.

Tarixiy roman janrining nazariy tadqiqotlari Karimov H. (1999), Samandarov I. (1992), Isaeva Sh. (2001) ko‘proq asr asarlari misolida qurilgan. Isaxonovanning XXI asr romanlari bu tadqiqotlarning bazasida yaratilgan bo‘lsa-da, uning o‘ziga xos badiiy yangiligi gender o‘lchovini tarixiy xarakter tipologiyasiga olib kirish va ichki dialog usulining yangi imkoniyatlarini kashf etish bu maqolada birinchi marta ilmiy asoslandi.

Ashurova (2023) tarixiy shaxs obrazini yaratish mezonlari sifatida “katta ilmiy tayyorgarlik” va “badiiy to‘qimadan o‘rinli foydalanish”ni ko‘rsatadi. Tadqiqotimiz bu mezonlarni Isaxonova misolida tekshirib, adibaning an-Nasaviy va Ibn Arabshoh manbalariga tayanishi bilan birga “badiiy bo‘shliqlarni” psixologik to‘qima bilan to‘ldirish usulini ko‘rsatdi. Bu holat Yoqubovning “Tarixchi olim ishi tugagan joyda yozuvchi ishi boshlanadi” tamoyilini⁷⁹ amalda tasdiqlaydi.

Isaxonova milliy xarakter konsepsiyasining o‘ziga xosligi. Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov va Abdulla Qodiriy asarlaridagi milliy xarakter obrazlari bilan solishtirganda, Isaxonova konsepsiyasida uchta asosiy farq ko‘zga tashlanadi:

Birinchi, adiba milliy xarakterni “sobit ideya” emas, balki “harakatdagi jarayon” sifatida tasvirlaydi. Turkon xotun bu bir xil bo‘lib qolmagan, balki o‘z xatolarini anglab, ma‘naviy o‘sishga intilib, biroq ko‘p hollarda kech qolib fojiaga yuz tutgan qahramondir. Bu yondashuv statik milliy xarakter tasviridan farq qiladi.

Ikkinchi, adibaning qahramonlari milliy xarakter xususiyatlarini ko‘pincha tashqi jihatlarda emas, yashirin ichki holatlarda namoyon qiladi. Jaloliddinning xanjarni yechib qo‘yish harakati bu tashqi belgi, ammo uning zamirida yotgan “yurt yaxshiligi uchun hokimiyatdan voz kechish” tamoyili milliy xarakter konsepsiyasining markaziy o‘zagini tashkil etadi.

Uchinchi, Isaxonova milliy xarakter inqirozini ya‘ni milliy qadriyatlardan yuz o‘girishning oqibatlarini ximoyasiz ko‘rsatadi. Muhammad Xorazmshoh va

⁷⁹ Yoqubov, O. (2019). So‘z. 1-kitob. Toshkent: Sharq nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.

Mironshoh obrazlari orqali adiba shuni ko'rsatadiki, milliy xarakter yo'qolishi nafaqat shaxsiy fojia, balki butun xalq uchun dahshatli oqibatlarining sababidir. Bu ijtimoiy-axloqiy xulosa adibaning konsepsiyasiga alohida ulug'vorlik baxsh etadi.

Xulosa

Ushbu maqola Shahodat Isaxonovaning "Turon malikasi" va "Sulton Jaloliddin Manguberdi" romanlarida milliy xarakter konsepsiyasi va qahramonlar tipologiyasi masalasini keng qamrovli ilmiy tahlil qilish orqali quyidagi xulosalarga keldi: Adibaning milliy xarakter konsepsiyasida vatanparvarlik, adolat, sabr va onalik muhabbati to'rtta asosiy qadriyat milliy xarakter o'zagini tashkil etadi. Bu qadriyatlar turli qahramonlarda turlicha shaklda namoyon bo'ladi. Qahramonlarni tipologik jihatdan tahlil qilish natijasida ideal, real va fojiviy uchta asosiy xarakter tipi aniqlanib, ularning milliy xarakter konsepsiyasidagi o'zaro bog'liqligi ilmiy asoslandi.

Adibaning gender yondashuvi o'ziga xos bo'lib, ayol obrazlari milliy xarakterning eng barqaror onalik, sabr, ma'naviy mas'uliyat qatlamlarini, erkak obrazlari esa milliy xarakterning jamoaviy-siyosiy jihatlari birdamlik, vatanparvarlik, adolatni vakillaydi. Isaxonova ichki dialog, arxaik leksika, xalq maqollari va ramziy detallar kabi badiiy vositalar orqali milliy xarakter konsepsiyasini hayotiy va ishonarli badiiy shaklda ifodalashga muvaffaq bo'lgan.

Adibaning asarlaridagi milliy xarakter tarixiy sharoit, psixologik iztirob va axloqiy tanlov o'rtasidagi dialektik jarayon mahsulidir. Bu esa Isaxonova roman kontsepsiyasini zamonaviy o'zbek tarixiy nasrida o'ziga xos badiiy hodisa darajasiga ko'taradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. An-Nasaviy, Sh. M. (1999). Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti (Tarjimon: K. Matyoqubov). Toshkent: Yozuvchi.
2. Ashurova, G. N. (2023). Mustaqillik davri o'zbek adabiyotida Alisher Navoiy obrazi: Monografiya. Toshkent: Qamar media.
3. Boboxonov, M. I. (2023). Hozirgi o'zbek romanlari strukturasi badiiy psixologizm muammosi: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand.
4. Hamidov, M. (2022). O'zbek adabiyotida tarixiy haqiqat va badiiy to'qima (Mashrab obrazi misolida): Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Farg'ona.
5. Ibn Arabshoh. (1992). Amir Temur tarixi. Toshkent: Mehnat.
6. Isaxonova, Sh. (2018). Sulton Jaloliddin Manguberdi. Toshkent: Sano-standart.
7. Isaxonova, Sh. (2022). Turon malikasi: tarixiy roman. Toshkent: Ma'rifat bitiklari.

8. Jirmunskiy, V. M. (1977). Teoriya literatury. Poetika. Stilistika. Leningrad: Nauka.
9. Jo'raqulov, U. (2022). O'zbek romani genezusi: Monografiya. Toshkent: Nurafshon Business.
10. Jo'raqulov, U. (2024). Tarixiy obraz: genezis va tipologiya. Theory of Literature, (1), 8-14.
11. Matmusaeva, N. M. (2024). Hozirgi o'zbek tarixiy romanlarida ayol shaxsi va uning badiiy talqini: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Namangan.
12. Mirvaliev, S. (2004). Abdulla Qodiriy. Toshkent: Fan.
13. Nazarov B. Hayotiylik – bezavol mezon. Toshkent: Sharq, 2004.
14. Normatov U. Nasriimiz an'analari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978.
15. Pospelov, G. N. (1970). Teoriya literatury. Poetika. Moskva: Nauka.
16. Qo'shjonov, M. (1977). Mohiyat va badiiyat. Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
17. Quronov, D. (2018). Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: Navoiy universiteti.
18. Quronov, S. (2024). Romanda inson. Andijon: Ilmiy bitiklar.
19. Sulton, I. (2005). Adabiyot nazariyasi. Toshkent: O'qituvchi.
20. Usmonova, S. (2025). O'zbek va ingliz tarixiy romanlarida malikalar obrazining qiyosiy-tipologik talqini: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Farg'ona.
21. Yoqubov, O. (2019). So'z. 1-kitob. Toshkent: Sharq nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.
22. Ziyaeva, M. (2023). Mustaqillik davri o'zbek romanlarida oshiq-ma'shuq va raqib obrazi: Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. Toshkent.